



ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI




Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **5 971** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 950** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **14 237,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **105,5 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **1 002,9** mlrd.. so'mni (o'sish sur'ati **106,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13 235,0** mlrd.. so'mni (o'sish sur'ati **105,4%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 280,7** mlrd.. so'mni (o'sish sur'ati **106,3 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- sentabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	14 237,9	105,5
Andijon sh.	3 978,6	109,4
Xonobod sh.	159,7	104,1
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	566,2	106,4
Andijon	910,0	102,7
Baliqchi	935,0	104,2
Bo'ston	213,4	108,3
Buloqboshi	457,0	103,7
Jalaquduq	475,7	110,6
Izboskan	510,0	109,5
Ulug'nor	199,5	102,4
Qo'rg'ontep'a	978,8	110,4
Asaka	1 186,6	100,2
Marhamat	655,0	103,3
Shahrixon	1 844,9	101,8
Paxtaobod	658,6	100,4
Xo'jaobod	509,0	104,5


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**9,4 %**), Jalaquduq (**10,6 %**), Qo'rg'ontep'a (**10,4 %**), va Izboskan (**9,5 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-sentabr)



So'nggi 5 yillikda (2019-2023-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori o'sish 2022-yilga tog'ri kelib, 110,4 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022-yil, 2023-yil yanvar -sentabr oyi)




2023-yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil qildi.



yanvar-sentabr 2023- yil

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **27,9 %** bilan **3 978,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,0 %** bilan **159,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 235,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **5,4 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **6,5 %** ga o'sdi va **1 002,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **7,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,1 %**), Qo'rg'ontep'a (**99,1 %**), Shahrixon (**98,7 %**) va Buloqboshi (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,6 %**), Andijon (**8,3 %**), Jalaquduq (**7,3 %**) va Bo'ston (**6,8 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Andijon viloyati	4 250,9	103,3
Andijon shahar	8 414,9	106,9
Xonobod shahar	3 526,1	102,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	2 976,8	104,2
Andijon	3 223,4	100,4
Baliqchi	4 389,6	102,1
Bo'ston	2 778,9	106,2
Buloqboshi	3 024,6	101,6
Jalaquduq	2 419,9	108,5
Izboskan	2 022,2	107,3
Ulug'nor	3 151,6	100,8
Qo'rg'ontep'a	4 300,4	108,5
Asaka	3 387,3	98,0
Marhamat	3 561,7	101,2
Shahrixon	5 767,2	99,5
Paxtaobod	3 198,4	98,2
Xo'jaobod	4 306,3	101,8

2023-yilning yanvar-sentabr oyi holatiga o'rтacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 250,9** ming so'mni (2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **103,3 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**8 414,9** ming so'm), Shahrixon (**5 767,2** ming so'm) va Xo'jaobod (**4 306,3** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 280,7** mld. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **106,3 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **978,6** mld. so'mni (**127,5 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1302,0** mld. so'mni tashkil etdi (**105,7 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-sentabr, foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 280,7	106,3
Andijon shahar	514,8	131,0
Xonobod shahar	3,5	34,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	38,6	111,1
Andijon	66,3	107,7
Baliqchi	135,7	92,1
Bo'ston	21,5	146,8
Buloqboshi	79,3	96,9
Jalaquduq	73,8	163,1
Izboskan	29,6	163,7
Ulug'nor	76,0	89,6
Qo'rg'ontep'a	140,6	284,5
Asaka	239,5	103,7
Marhamat	120,4	87,7
Shahrixon	443,4	93,2
Paxtaobod	199,0	81,4
Xo'jaobod	98,7	84,6

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023-yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **978,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**328,3** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 328,3
	Non va non mahsulotlari 271,8
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 116,0
	Tovuq go‘shti 39,4
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 34,2
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 20,2
	Tuxum 28,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak 6,0
	Ziravorlar 37,1
	Tuzlamalar 21,3
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 11,3
	Nooziq-ovqat tovarlari 64,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so‘m

2023-yilning yanvar-sentabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 302,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 104,2** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – **178,4** mlrd. so‘mni, otlar – **10,4** mlrd. so‘mni, parrandalar – **9,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	mlrd. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar
	Qo‘ylar
	Otlar
	Echkilar
	Kurka, o‘rdak, g‘oz
	Tovuqlar
	Quyonlar
	Qushlar



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil **1-oktabr** holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 168** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 167** tani tashkil qildi


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	266,1	109,7
Andijon shahar	118,5	111,9
Xonobod shahar	3,2	108,7
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	13,0	108,3
Andijon	20,9	108,0
Baliqchi	5,2	108,0
Bo'ston	6,3	107,5
Buloqboshi	2,2	106,6
Jalaquduq	5,4	108,0
Izboskan	7,4	107,4
Ulug'nor	2,9	108,1
Qo'rg'ontep'a	11,6	102,5
Asaka	11,6	108,2
Marhamat	8,1	107,8
Shahrixon	34,2	108,9
Paxtaobod	9,1	110,3
Xo'jaobod	6,4	109,7

2023-yilning yanvar-sentabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **266,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **109,7 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **92,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 790,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,0** % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 229,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **138,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 561,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **145,0** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot



	Hajm, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 790,0	114,0
Andijon shahar	1 932,6	116,8
Xonobod shahar	0,3	106,2
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	110,2	103,1
Andijon	101,2	103,1
Baliqchi	3,0	104,1
Bo'ston	0,3	104,4
Buloqboshi	0,6	104,6
Jalaquduq	2,9	103,7
Izboskan	1,3	104,7
Ulug'nor	0,2	105,6
Qo'rg'ontep'a	32,5	103,2
Asaka	319,6	135,1
Marhamat	10,6	103,2
Shahrixon	10,1	103,8
Paxtaobod	2,2	104,0
Xo'jaobod	262,5	91,6

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**1 932,6** mlrd. so'm), Asaka (**319,6** mlrd. so'm) va Xo'jaobod (**262,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




yanvar-sentabr 2023-yil


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 543,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **7,4 %** ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4 207,4** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **107,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **92,6 %** ni tashkil qildi.




yanvar-sentabr 2023-yil

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Oltinko'l, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 839** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **25** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 814** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	4 543,2	107,4
Andijon shahar	1 650,7	104,8
Xonobod shahar	21,6	106,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	250,4	121,5
Andijon	429,2	114,4
Baliqchi	303,0	104,7
Bo'ston	114,4	106,3
Buloqboshi	99,3	106,2
Jalaquduq	52,1	118,2
Izboskan	86,7	105,7
Ulug'nor	48,9	106,4
Qo'rg'ontep'a	112,4	105,0
Asaka	142,1	106,5
Marhamat	76,9	113,1
Shahrixon	1 014,3	105,2
Paxtaobod	81,0	107,0
Xo'jaobod	60,1	147,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: 74 228-30-57